

4-MAVZU:KASB-HUNAR TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH METODLARI

Reja

1.O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi metodlari klassifikatsiyasi

2.Kasb-hunar ta'limining og'zaki metodlari

3.Kasb-hunar ta'limining amaliy metodlari

4. Kasb-hunar ta'limida ko'rgazmalilik metodlari to'g'risida tushuncha.

5.Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari

6.Kasb-hunar ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Ta'lim metodi haqida tushuncha

-o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat yo'llari tushuniladi. Bularning yordamida o'quvchilar bilim, malaka ko'nikma, kasbiy mahoratlarini egallashga erishadilar, aqliy va jismoniy kuch va ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Ba'zi olimlar metodni belgilashda bilish manbalarining xususiyatlarini asosiy deb hisoblaydilar, boshqalari o'quvchilarning tafakkuridagi ijodiy faollik va mustaqillik, ayrim olimlar esa o'quvchilar faoliyatida ta'limning turli bosqichlaridagi xarakteristikani muhim deb va shu kabilarni hisoblaydilar

Og‘zaki metodlarga o‘quv materialining o‘qituvchi tomonidan og‘zaki bayon qilinishiga, hikoya, tushuntirish, suhbat o‘quvchilarning texnik adabiyoti bilan mustaqil ishlashi yozma instruksiya berish, ovoz yozuvchi televidenie kabilar kiradi.

Materialni og‘zaki bayon qilish - kasb ta’limida hikoya qilish, tushuntirish, ma’ruza, suhbat, o‘quv materialini og‘zaki bayon qilishning asosiy metodlari hisoblanadi.

Hikoya - o‘qituvchi tomonidan o‘quv materialini tartibli, mantiqiy, izchil, nisbatan kengroq bayon qilishda foydalaniladi. U puxta reja asosida tuzilishi, materialni bayon qilishda noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun barcha detallari bilan tayyorlanishi lozim.

Tushuntirish - hikoyaga yaqin bo‘lgan ta’lim metodi hisoblanadi. Kasb ta’limida hikoya va tushuntirishdan alohida holda kam foydalaniladi.

Ko'rgazmali metodlar

Ko'rgazmali metodlar - bu ko'rsatmali qurollarni namoyish (ko'rsatish) qilish mehnat usullarini ko'rsatish; o'quvchilarning mustaqil kuzatishlari; o'quv-ishlab chiqarish ekskursiyalari. Ko'rsatmali qurollarni namoyish qilish (ko'rsatish) metodi yordamida o'quvchilarda mehnat harakatlarining muayyan va aniq obrazi shakllanadi. Ular unga taqlid qiladilar va o'z harakatlarini qiyoslaydilar. Plakatlar, sxemalar, modellar, maketlarning namoyish qilish bilan bir qatorda harakatdagi ish quroli, asboblari, moslamalar homashyolar, buyumlarning na'munalari va hokazolarni ko'rsatish ham katta ahamiyatga ega.

Amaliy metodlar

Amaliy metodlarga mashqlar, instruktaj (yo'llanma)lar, o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, laboratoriya tajribalari, kasbiy ko'nikma va malaqalarni shakllantirish kiradi.

Mashqlar - kasb-hunar ta'limi jarayonini tadqiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli (5-15 minutam) mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu mashqlarni shartli ravishda ta'limiy mashqlar deyiladi. Amaliy ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar har xil buyumlar tayyorlar ekan, mehnat usullari va harakatlarini bajarish bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. Bunday mashqlarni tayyorgarlik mashqlari deyiladi.

Этиборингиз учун
рахмат!

